

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

YANVAR

ANDIJON, 2025

## SPORT KOLLEJLARIDA KIMYO DARSLARINI OLIB BORISHDA SPORT-O'YIN TEXNOLOGIYALARI ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH

To'xtaniyozova F.O.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Ishda sport kollejlari kimyo darslarida sport-o'yinlari elementlaridan foydalangan holda kimyo fanini o'qitish haqida so'z borgan.

**Kalit so'zlari:** sport kolleji, kimyo darsi, o'yin texnologiyasi, nazariy, amaliy, mustaqil ta'lim.

Ma'lumki, o'yin so'zining ma'nolaridan biri: "bu muayyan shartlarga asoslangan, muayyan qoidalarga bo'ysunadigan bunday faoliyatning bir turi yoki usuli hisoblanadi. O'z o'rnida bunga sport-o'yinlarining elementlarini kiritilishi uni yanada boyitadi va samaradorligini oshiradi.

"Sport kollejlari(maktablarida) o'quvchilar tomonidan kimyo fanini o'rganish 7-sinf dan boshlab o'rganiladi. Bu yo'nalishda doimiy qiziqishni rivojlantirishga yordam beradigan birinchi darslar. O'qituvchi o'z fanini o'quvchi bilan bog'laydigan ipni bo'shatmasligi lozim. Aks holda bu o'quvchilarni zeriktirib qo'yadi va fanni o'zlashtirishlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'yin-bu olingan bilimlarni qayta ishlash usuli bo'lib, unda aqliy faoliyat, o'quvchining tasavvuri, faoliyati, keyingi rivojlanish zarurati va eng muhimi qiziqishini namoyon qiladi[1,2].

Metodist-olim A. S. Makarenko yozishicha, kelajakdagi shaxsning tarbiyasi, avvalo, o'yinda sodir bo'ladi. Mahalliy o'qituvchilar Omonov X.T.[3], Ruziyev R.[4], Usarov J.[5] va boshqalar o'yin pedagogik texnologiyalarini o'quvchining zukkoligi, qobiliyatlari, yaratuvchanligi va etakchiligining namoyon bo'lishini paydo bo'lishi deb hisoblashgan. Kimyo darslari nafaqat namoyishlar, laboratoriya va amaliy ishlar, balki o'quv jarayonini tashkil etish metodlari va usullari bilan" boyitilgan o'yin texnologiyalari" hisoblanadi[6].

Siz kimyo darsini o'yin vazifasi shaklida didaktik maqsadni belgilash bilan boshlashingiz mumkin, shu jumladan o'yin elementlari: jumboqlar, rasmlar, topishmoqlar. O'quv materialidan o'quv vositasi sifatida foydalanish, masalan: o'quvchilardan elementning kimyoviy belgisi ko'rsatilgan kartalarni tayyorlashni so'rayman. Ular asosan kimyoviy elementlarning belgilarini yodlash va o'quv materialini mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Sport kollejlari kimyo darslarida "Tic Tac toe", "uchinchisi ortiqcha", "Domino" o'yinlari mavzuni o'rganish yoki takrorlashda qo'llaniladi. Interfaol taqdimotlar o'quvchilarni dars davomida faol ravishda o'z ichiga olgan o'quv jarayonining ko'rinishini yaratishga imkon yaratadi. Dars o'quvchi-sportchilar uchun olib borilayotganligi sababli sport-o'yinlarini kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kimyoga nafaqat faktlar va nazariyalar ko'rinishida, balki kimyoviy bilimlarni hayotga bog'langan holda tushuntirish va qo'llash qobiliyati deb qarash kerak. Aynan sportchi-o'quvchi uchun bu o'ta muhim hisolanadi. Men ishning sport-o'yin elementlari shakllarini darsdan tashqari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarga kiritaman: fan haftalari, tanlovlar, sport kolleji o'quvchilarini jalb qilish bilan tanlovlar tashkil etaman. Bunda didaktik sport-o'yini elementlari ta'limning barcha funktsiyalarini amalga oshiradi: o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish.

O'ylaymanki, o'quv jarayonida sport-o'yin texnologiyalari elementlaridan foydalanish o'quvchilarga materialni yaxshiroq o'zlashtirishlariga imkon yaratadi. O'yin texnologiyalari o'qituvchiga sport kollejlari sportchi-o'quvchilarini o'qitishning amaliy muammolarini hal qilishga imkon beradi. Chunki shunda sportchi o'quvchilar kimyoviy bilimlarini kundalik faoliyat darsi bilan bog'lashiga harakat qilishadi. O'yin faoliyati orqali individual qobiliyatlarning rivojlanishi, "men"ni amalga oshirish sodir bo'ladi. Bu sportchi-o'quvchi uchun juda muhim hisoblanadi.

## Adabiyotlar:

1. Atqiyayeva I.S., Kurbanova A.D., Komilov Q.O. Kimyoni o'qitishda o'quvchilarning intellectual imkoniyatlarini rivojlantirishda elektron taqdimotlarning qo'llanilish// Academic research in educational sciences, 2021, №6(2), 1025-1032 betlar.
2. Ёдгаров Б.О., Курбанова А.Дж. Применение ИКТ для совершенствования общего химического образования// Общество и инновации. 2021. № 2(4/S), С. 257-261.
3. То'xtaniyozova F. O., Komilov K. U. Kimyo darslarida didaktik o'yinlar// Academic Research in Educational Sciences, 2021, №11(2), 903-911 betlar.
4. Бузрукходжаев А.Н., Комилов К.У. Технология проблемного обучения на уроках химии в школе// Экономика и социум, 2022,№2(1), С. 579-584.
5. Тухтаниёзова Ф.О., Комилов К.У. Формирование универсальных учебных действий у учащихся на уроках химии через дидактические игры// Экономика и социум, 2022, № 2(93), С.960-965.
6. Хамзаева М., Komilov Q. O'. Sport kollejarida kimyo ta'limini takomillashtirishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish// Academic Research in Educational Sciences,2022, №5(3), 1305-13-14.